

**NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYANING O'RNI VA MEDIATSIYA  
JARAYONINING MOHIYATI**

**Ibratova Feruza Bobokulovna**

*Toshkent davlat yuridik universitetining  
professor v.b., yuridik fanlari doktori  
Email: [ibratova.feruza@mail.ru](mailto:ibratova.feruza@mail.ru)*

**Rasulov Muhammadjon Mamarjon o'g'li**

*Toshkent davlat yuridik universitetining  
magistr talabasi  
Email: [ahmadalirasulov98@gmail.com](mailto:ahmadalirasulov98@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisdagi nizolarni muqobil hal etish usuli sifatida meadiatniyaning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari keltirib o'tilgan. Meadiatsiya tushunchasi, uning ahamiyati, ushbu jarayonda qo'llanadigan usullar, shakllanish jarayoni, ijobiy va salbiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, mediatsiya va nizolarni hal etishning boshqa usullari o'rtasidagi asosiy farqlar va ushbu sohada xorijiy tajribaning ijobiy jihatlari milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *nizolar, muqobil hal etish, mediatsiya, jarayon, kelishuv, arbitraj sudlari, hakamlik.*

**THE ROLE OF MEDIATION IN ALTERNATIVE DISPUTE RESOLUTION AND THE  
ESSENCE OF THE MEDIATION PROCESS**

**Ibratova Feruza Bobokulovna**

*Tashkent State Law University  
professor v.b., doctor of legal sciences  
Email: [ibratova.feruza@mail.ru](mailto:ibratova.feruza@mail.ru)*

**Rasulov Muhammadjon Mamarjon Oghli**

*Tashkent State Law University  
a master's student  
Email: [ahmilisulov98@gmail.com](mailto:ahmilisulov98@gmail.com)*

**Annotation:** *In this paper, the importance and specific features of mediation as a method of alternative conflict resolution are mentioned. The concept of mediation, its importance, methods used in this process, formation process, positive and negative aspects are covered. Also, the*

main differences between mediation and other methods of dispute resolution, as well as suggestions and recommendations aimed at implementing the positive aspects of foreign experience in this field into the national legal system and improving the legislation, are mentioned.

**Key words:** disputes, alternative resolution, mediation, process, agreement, arbitration courts, arbitration.

Fuqarolar o'zaro munosabatga kirishar ekan bir-birini huquq va manfaatlariga zarar yetkazmasligi hamda o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni ado etishi lozim. Huquq buzilishi yoki majburiyatni ado etilmasligi nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabab hisobladi. Bugungi kunda nizolarni hal etish nafaqat sud, balki alternativ yo'llar orqali ham amalga oshirilmoqda<sup>40</sup>. Bugunki kunda, suddan tashqarida nizolarni hal etish usullariga Mediatsiya, hakamlilik, arbitraj sudlari, kelishuv bitimi va boshqalarni kiritish mumkin<sup>41</sup>.

Mediatsiya kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usuli sifatida keng tarqalib borayotganligi ham nizolarni muqobil usullariga bo'lgan talabni orttirmoqda<sup>42</sup>. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 33-moddasida mediatsiya nizolarni hal etish vositasi sifatida tan olingan. Yevropa Kengashi va Parlamentining 2008-yil 21-maydagi YEI 2008 (52) direktivasi tijorat va fuqarolik sohasidagi vositachilikning ayrim jihatlari aloqador bo'lib, mediatsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Nizoning ikki yoki undan ortiq taraflari ular o'rtasidagi nizoni hal qilish to'g'risida kelishuvga erishishda, mazkur jarayon taraflarning tashabbusi bilan uyushtirilganligidan, sud tomonidan taklif etilgan, tayinlanganligidan yoki milliy qonunchilikda ko'rsatilganligidan qat'i nazar, uchinchi tarafga yordam so'rab murojaat etish jarayonidir<sup>43</sup>.

Mediatsiya muayyan fundamental prinsiplarga asoslanadi, shuningdek o'zining ichki tuzilmasiga ega bo'lib, nizolarni hal etish tizimida uning alohida o'rni va ahamiyati mavjud. Garchi mediatsiya nizolarni hal etishning muqobil usullaridan biri hisoblanasa ham, boshqa usullardan, xususan, kelishuv va hakamlilik usulidan bir qancha muhim farqlarga ega bo'lgan fuqarolik huquqiy holatlarida, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvch

<sup>40</sup> Носырева Е. И. Альтернативное разрешение споров в США. – Издательский дом Городец, 2005.

<sup>41</sup> Артемьева Ю. А. Альтернативное разрешение споров //В мире права. – 2011. – №. 1. – С. 28-34.

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyulda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi O'RBQ-482-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 7, 427-modda; 2019-yil № 7, 389-modda; 2020-yil, № 1, 3-modda) 4-moddasi 2-xatboshi. <http://old.lex.uz/docs/-3805227>

<sup>43</sup> Отахонов. Ф.Х. Низоларни муқобил ҳал қилиш Альтернативное разрешение споров Мақолалар тўплами. – Т.: 2022. – 338 б. 4-бет

shaxslar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek oilaviy huquqiy munosabatlar hamda yakka mehnat nizolarida kelib chiqadigan nizolarga nisbatan mediatsiyani amalga oshirish mumkin.

Nizolarni hal qilishning muqobil usullariga mediatsiya, hakamlilik sudlari, nizolarni muzokara yo'li bilan hal qilish (kelishuv) va yana bir qancha tasdiqlanmagan ammo amaliyotda tarqalib kelayotgan usullardan iborat. Ushbu nizolarni hal qilishning muqobil usullari nizolarni muqobil hal qilish huquqiy munosabat ishtirokchilari o'rtasida vujudga kelgan nizolarni suddan tashqari hal qilish imkonini berib, quyidagi afzalliklarga ega<sup>44</sup>.

Nizolarni sudgacha hal qilish (mamlakatimiz va MDH davlatlari qonunchiligida hamda yuridik adabiyotlarida keng qo'llaniladi) nizolarni muqobil hal qilish bilan sinonimdek ko'rinsada, ammo undan torroq ma'noni anglatadi.

Mediatsiya va vositachilikning boshqa turlari o'rtasidagi jiddiy farq shundan iboratki, vositachilar ko'pincha, nizo predmeti hisoblangan bitim sohasi bo'yicha ekspert bilimiga ega bo'ladi. Ayrim turdagi nizolarda vositachi huquqiy ma'lumotini taqdim etishga majbur. Bu taraflarga nizo predmetini tartibga soluvchi normativ doiraga muvofiq har qanday kelishuvni imzolash imkonini beradi, shuning uchun kelishuv tartibi o'zida tavsiyaviy jihatni o'zida aks ettirishi mumkin.<sup>45</sup>

Mediatsiya tartibida esa, vositachi-mediator tavsiyaviy vazifaga ega emas. Buning o'rniga, mediator taraflarga nizoni umumiy tushunishni ishlab chiqish va nizoni hal qilish yo'nalishida harakat qiladi<sup>46</sup>.

Vositachilik ham, mediatsiya ham nizoli masalalarni bildirish hamda nizo ishtirokchilari uchun maqbul keladigan kelishuv variantlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ushbu barcha tartiblar ancha yumshoq yondashuvlarni nazarda tutadi, va qabul qilingan qarorlar taraflarning roziligiga asoslanishi lozim. Bu esa anchagina huquqiy dalillar va isbotlar hisobiga ishtirokchi foydasiga odatda hal qiladigan an'anaviy sud jarayoniga qarama qarshi holatlardir<sup>47</sup>.

Mediatorning o'рни maslahatchi yoki konsultantning o'rnidan farqlanadi<sup>48</sup>.

Mediator jarayonlarni nazorat qiladi, biroq ishtirokchilarga yoki natijaga ochiqdan-ochiq ta'sir ko'rsatishga harakat qilmaydi. Maslahatchi esa,

<sup>44</sup> Ibratova F. B. Legal consequences of the introduction of a bankruptcy procedure for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur. – 2022.

<sup>45</sup> Е. В. Силина Перспективы развития альтернативных форм разрешения споров УДК 347.9

<sup>46</sup> Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team,(2021). – 2021. – Т. 45.

<sup>47</sup> Севастьянов Г. В. Правовая природа третейского разбирательства как института альтернативного разрешения споров (частного процессуального права). – АНО «Редакция журнала «Третейский суд», 2015.

<sup>48</sup> Ibratova F. Bankrotlik to'g'risidagi ishlarda prokuror ishtiroki.

ko'pincha qarorlar qabul qilishda yoki masalalarning ayrim qismlarini ko'rib chiqishda taraflarga ta'sir ko'rsatadi.

Mediator qoida bo'yicha, taraflar o'rtasida yuzma yuz muzokaralarni tashkil etadi va bunda shaxsan o'zi ishtirok etadi. Maslahatchiga ikki tomonni bir vaqtning o'zida ko'rish shart emas. Mediator doimo xolis bo'lishi shart. Maslahatchi esa, agar zarurat bo'lsa, ancha faol yordam berishi mumkin<sup>49</sup>.

Shuni qayd etish lozimki, tadbirkorlik faoliyati sohasida nizolarni muqobil (nosudlov) hal qilish usullarining rivojlanishi O'zbekiston Respublikasining integarsiya, globalashuv jarayonlariga yanada kengroq kirishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi<sup>50</sup>. Shuning uchun bugungi kunga kelib, ishbilarmon jamiyatga vujudga kelgan nizolarni ishbilar-monlik aloqalarin uzmay hal qilishning tez qulay, kamxarj, samarali nizolarni muqobil hal qilishning usullari va shakllarini faol qo'llash lozim.

Chunki bu uzoq va qimmat bo'lgan davlat sudining sud tartibiga qaraganda O'zbekiston tadbirkorlari uchun ancha foydali hisoblanadi<sup>51</sup>.

Fuqarolik ishlari bo'yicha mediatsiya mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarni amalga oshirish yuzasidan, shartnoma va shartnomadan tashqari majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlardan kelib chiqadigan ko'p nizolarni hal etishda qo'llanilishi mumkin<sup>52</sup>.

Xususan shartnomalar, oldi-sotdi shartnomasining barcha turlari, mulk ijarasi, pudrat, yuk tashish, sug'urta, zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, intellektual mulk vorislik huquqi, chet el elementi bo'lgan fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar<sup>53</sup>.

Aliment munosabatlarida mediatsiya aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs bilan aliment oluvchi o'rtasida tuziladigan aliment to'lash to'risidagi kelishuvga erishishga yordamlashuvchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga voyaga etmagan bolalarga aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentning miqdori aliment sud tartibida

---

<sup>49</sup> Ефремова, О. В. Правовые технологии посредничества (медиатсии) в образовательных организациях города Москвы: сборник нормативно-правовых актов и методических материалов / О. В. Ефремова, Е. В. Питко. — Москва, 2016.

<sup>50</sup> Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

<sup>51</sup> Сулакшин С. С. и др. Альтернативные способы разрешения споров между субъектами предпринимательской деятельности //М.: Научный эксперт. – 2013.

<sup>52</sup> Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – T. 1. – С. 13-19.

<sup>53</sup> Ibratova F. Мировое соглашение в гражданском судопроизводстве: теоретические проблемы и практика //О 'zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2018. – №. 4. – С. 35-39.

undirilganda bolalar olishi mumkin bo'lgan miqdordan kam bo'lmasligi kerak.

Mediatsiya mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni, xususan mehnat shartnomasidan, shuningdek jamoalarga doir mehnat nizolarini hal etishda qo'llanishi mumkin<sup>54</sup>. Mehnat shartnomasidagi taraflar o'z nizolarini sudga murojaat qilishdan oldin mediatsiyani qo'llash orqali hal etishlarini kelishib olishlari mumkin. Bunday kelishuv xodim va ish beruvchiga birday foydali. Kelib chiqadigan nizo jamoatchilikka tarqalmaydi bu ishchanlik obro'si haqida o'ylaydigan ish beruvchiga foydali, xodim esa o'z vaqti va pulini sud instansiyalaridan o'tishga sarflamaydi<sup>55</sup>. Xodim va ish beruvchi kelishmovchiliklarni o'zaro hal etib va kelishuv bitimiga erishib, mehnat munosabatlarini davom ettirishadi deb aytishga asoslar bor. Mediatsiya aynan taraflari uzoq davom etadigan munosabatlarda bo'lgan nizolarni hal etish uchun mo'ljallangan, mediatsiya jarayonida mediator yordamida erishilgan qarorlar esa taraflarning manfaatlariga asoslangan va kelajakdagi hamkorlikka yo'naltirilgan.

Bir qarashda mehnat nizolari bo'yicha komissiyalar mediator vazifasini bajarishi mumkindek ko'rinadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 262-moddasiga asosan, mehnat nizolari komissiyalari ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tomonidan tenglik asosida tuziladi. Komissiyaga kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organidan ajratilgan a'zolar tegishli organing qarori bilan, ish beruvchining vakili esa, uning buyrug'i bilan tasdiqlanadilar.

Biroq bunda mediatsiya jarayoniga mos kelmaydigan muayyan bir holat mavjud. Komissiya a'zolari oldindan tasdiqlanadi, bu xodim va ish beruvchida komissiya a'zolarining nomzodlarini tanlash huquqi yo'qligidan dalolat beradi. Bu holat mediatsiya jarayonining talablariga javob bermaydi<sup>56</sup>.

Shu bilan birga mediatsiya nizolarni hal etishning universal usuli emasligini ta'kidlash kerak. Yuqorida aytib o'tilganidek, u alohida turdagi fuqarolik ishlarini hal etishda qo'llanishi mumkin emas. Shunday qilib, qonunchilikda imperativ tarzda tartibga solinadigan masalalar bo'yicha mediatsiyaning qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi<sup>57</sup>.

<sup>54</sup> Еиседа, А. Трудовой спор по правилам и без / г. Киселев // -Юрист. — 2011. — № 40. — С. 4

<sup>55</sup> Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.

<sup>56</sup> Ibratova F. B. The Concept and Characteristics of Bankruptcy Procedures for Business Entities With the Status of a Legal Entity //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – T. 20. – С. 143-147.

<sup>57</sup> <https://drive.google.com/file/d/1q2dqHRmZAKmNYLy5Sc-GUBJU-2JFpjt/view?usp=drivesdk>

Germaniyalik ekspert Mariya Krauzenbyok “O‘zbekiston sud-huquq tizimidagi islohotlardan xabardor mutaxassis sifatida aytamanki, bu yerdagi jahon qonunchiligi bilan integratsiyalashuv tajribasi diqqatga sazovor. O‘zbekistonda qabul qilingan hakamlilik sudi qonunchiligidagi ayrim ibratli jihatlarni ta’kidlamoqchiman. Masalan, hakamlarga haq to‘lash ko‘riladigan ishning darajasi bilan belgilanadi. Bu adolatli tajribadir” deb aytgan<sup>58</sup>.

Jahon tajribasida iqtisodiy, oilaviy va mehnat nizolarni sudgacha hal qilish usullaridan biri bo‘lgan yarashuv instituti tobora rivojlanmoqda. Yarashtiruv va vositachilik usullari biz uchun yangilik emas<sup>59</sup>.

Ular xalqimizning ko‘p asrlik an‘analariga mos bo‘lib, azaldan keng qo‘llangan. Bugungi kunda milliy qonunchiligimizda yarashtiruv, ya‘ni mediatsiya to‘g‘risidagi qonunni qabul qilishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, birinchidan nizolarni hal qilishning muqobil usullari - tomonlarning va boshqa shaxslarning yuzaga kelgan nizoni hal qilish bo‘yicha uni suddan tashqari hal etish yoki yarashuv yoki boshqa taqiqlanmagan tartib-qoidalar yordamida hal qilishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq harakatlar tizimini tashkil etadi, deb baholash mumkin<sup>60</sup>.

Nizolarni hal qilishning muqobil usullari qo‘llashnilishi nizoni yechimini topishda tez fursatda imkon berishi mumkin. Lekin ularning turlarini keng joriy etish ham jamiyatda nizoli holatlarni oson bartarf etish va uni muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli nizolarni muqobil hal qilishning eng afzal usuli sifatida muzokaralarning roli va samardorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. Shartnomalarning xususiyatlariga qarab Fuqarolik kodeksida shartnoma shartlari bilan nizoli holatlar yuzaga kelganda ularning aksariyati uchun muzokara o‘tkazish uning natijasiga ko‘ra sudga murojaat qilish huquqini mustahkamlash lozim;

2. Muzokaralar olib borish prosedurasini aniq yoritish, buning uchun “Mediatsiya to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muzokara tushunchasi va uni o‘tkazishga oid shartnoma taraflarining huquqlari xususida norma shakllantirish lozim<sup>61</sup>.

<sup>58</sup> <https://uza.uz/uz/posts/i-tisodiy-nizolarni-al-etishda-milliy-va-khorizhiy-tazhrifa-23-05-2016>

<sup>59</sup> Ibratova F. Legal Problems of the Concepts Legality, Justification and Justice by Judicial Acts //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 16.

<sup>60</sup> Арпентьева М. Р. Медиация в контексте проблем альтернативного разрешения споров //Вестник Федерального института медиации. – 2017. – №. 2. – С. 48-64.

<sup>61</sup> Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – С. 57-62.



“Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun fuqarolik ishlarini, iqtisodiy ishlarni hamda ma‘mumuriy sud ishlarini ko‘rib chiqishda qonunchilik normalarini qo‘llash bilan bog‘liq barcha jihatlariga aniqlik kiritilmasdan qolmoqda.

Jumladan birgina boj to‘lovlari maslasi, IPKning 101-moddasida mediasiya tartib-taomilini amalga oshirish to‘g‘risida kelishuv tuzilganda sud mediasiya tartib-taomilini amalga oshirish tugaguniga qadar, biroq oltmish kundan ortiq bo‘lmagan muddatda ish yuritishni to‘xtatib turishi mumkinligi belgilangan<sup>62</sup>.

Ish yuritish qayta tiklanganda sudga mediativ kelishuv taqdim etiladi. Shu bilan sud IPKning 107-moddasiga asoslanib taraflar o‘rtasida mediativ kelishuv tuzilganligi sababli da‘vo arizasi ko‘rmasdan qoldiradi. Bu holatda taraflar mediativ kelishuv bitimida ko‘rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan taqdirda sudga qayta murojaat qilish huquqi ochiqlanmagan.

Ma‘lumki, IPKning 109-moddasida da‘vo arizasini ko‘rmasdan qoldirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlar bartaraf etilganidan keyin da‘vogar sudga da‘vo arizasi bilan umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli ekanligi nazarda tutilgan bo‘lsada mediativ kelishuvni bajarmaslik da‘vo arizasini ko‘rmasdan qoldirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlar bartaraf etilishi bilan bog‘liq holat emas<sup>63</sup>.

Mediativ kelishuvning huquqiy oqibatlarini kuchaytirish uni ijro etilish mexanizmini shakllantirish maqsadida mediativ kelishuv bajarilmagan taqdirda unda ko‘rsatilgan muddat ijro muddati tugashi bilan uni majburiy ijroga qaratish masalasini qonunchilikka kiritish lozim<sup>64</sup>.

IPKning 101-moddasida mediasiya tartib-taomilini amalga oshirish to‘g‘risida kelishuv tuzilganda sud mediasiya tartib-taomilini amalga oshirish tugaguniga qadar, biroq oltmish kundan ortiq bo‘lmagan muddatda ish yuritishni to‘xtatib turishi mumkinligi belgilangan.

Ish yuritish qayta tiklanganda sudga mediativ kelishuv taqdim etiladi. Shu bilan sud IPKning 107-moddasiga asoslanib taraflar o‘rtasida mediativ kelishuv tuzilganligi sababli da‘vo arizasi ko‘rmasdan qoldiradi. Bu holatda taraflar mediativ kelishuv bitimida ko‘rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan taqdirda sudga qayta murojaat qilish huquqi ochiqlanmagan.

<sup>62</sup> Ibratova F. BANKRUPTCY OF A LIQUIDATED BUSINESS ENTITY: PROBLEMS AND SOLUTIONS //Norwegian Journal of development of the International Science. – 2021. – T. 2021. – C. 45.

<sup>63</sup> Ibratova F. Problems of a settlement in bankruptcy cases in economic courts //Norwegian Journal of Development of the International Science. – 2019. – №. 28-3. – C. 23-25.

<sup>64</sup> Воронцова Е. В. Альтернативные формы разрешения споров //Принципы гражданского, арбитражного и административного судопроизводства: проблемы теории и практики. – 2021. – С. 366-369.

Vaholanki, taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilganligi sababli da'vo arizasi ko'rmasdan qoldirilgan bo'lib, taraflardan biri mazkur kelishuvning talablarini bajarmasligi kabi salbiy holatlar kelib chiqishi mumkin. Shu sababli qonunchilik hujjatlarda bu kabi holatda ishni qayta ko'rish yoki uni majburiy ijroga to'g'ridan-to'g'ri yuborish mumkinligini ham nazarda tutish maqsadaga muvofiq<sup>65</sup>.

Birinchidan; O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 24-yanvarda qabul qilingan O'RBQ-461-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksining 103-moddasining 3<sup>1</sup>-qismida mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish tugaguniga qadar, biroq oltmish kundan ortiq bo'lmagan muddatda berilishi nazarda tutilgan.

Biroq, amaliyotda bu kabi muammolarni hal qilish uchun mazkur muddat yetmasligi mumkin, shu sababli shu muddatni uzaytirish yoki muddatni to'xtatib turish shartlarini belgilash maqsadga muvofiq<sup>66</sup>.

Ma'lumki, IPKning 109-moddasida da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlar bartaraf etilganidan keyin da'vogar sudga da'vo arizasi bilan umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli ekanligi nazarda tutilgan bo'lsada mediativ kelishuvni bajarmaslik da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan holatlar bartaraf etilishi bilan bog'liq holat emas.

Shu bilan birgalikda FPKning 116- va 118-moddasida xuddi IPKda belgilangan tartibda mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish tugaguniga qadar, biroq oltmish kundan ortiq bo'lmagan muddatda ish yuritish to'xtatib turilishi kelishuvga erishilsa ariza ko'rmasdan qoldiriliashi belgilangan.

Shunday bo'lsa ham "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasida esa mediativ kelishuv bajarilmagan taqdirda taraflar o'z huquqlari himoya qilinishini so'rab sudga murojaat etishga haqli ekanligi belgilangan.

Mediativ kelishuvning huquqiy oqibatlarini kuchaytirish uni ijro etilish mexanizmini shakllantirish maqsadida mediativ kelishuv bajarilmagan taqdirda unda ko'rsatilgan muddat ijro muddati tugashi bilan uni majburiy ijroga qaratish masalasini qonunchilikka kiritish lozim.

Mediativ kelishuvda belgilangan shartlar lozim darajada bajarilmagan yoki boshqa holatlarga ko'ra u bekor qilinganda fuqaroviy da'vogarni

<sup>65</sup>Ibratova F. Problems of a settlement in bankruptcy cases in economic courts //Norwegian Journal of Development of the International Science. – 2019. – №. 28-3. – С. 23-25.

<sup>66</sup> Романенко М. А. Альтернативные формы разрешения правовых конфликтов: выбор оптимальной модели //Вестник Астраханского государственного технического университета. – 2005. – №. 5. – С. 244-251.



belgilangan tartibda jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash bo'yicha sud tartibida ko'rib chiqish huquqidan mahrum etmaydi."

Ushbu Qonunda bo'yicha mono-markazda barcha nizolarni hal qilish usullari usbu markazda amalga oshiriladi. Qonuniylik, tenglik, adolatlilik, xolislik, prinsiplari asosida ish ko'riladi. Ishni yakuni bo'yicha qaror chiqariladi. Agar ish ijobiy tomonga hal bo'lgan bo'lsa, belgilangan tomonlar o'rtasidagi kelishuv majburiy tartibda amalga oshiriladi. Agar ishda tomonlar kelishuviga erishilmaganda ush holat yuzasidan qaror chiqariladi keyin esa belgilangan davlat sudiga murojaat qilishga haqli hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Носырева Е. И. Альтернативное разрешение споров в США. – Издательский дом Городец, 2005.
2. Артемьева Ю. А. Альтернативное разрешение споров //В мире права. – 2011. – №. 1. – С. 28-34.
3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyulda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi O'RQ-482-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 7, 427-modda; 2019-yil № 7, 389-modda; 2020-yil, № 1, 3-modda) 4-moddasi 2-xatboshi. <http://old.lex.uz/docs/-3805227>
4. Отахонов. Ф. Х. Низоларни муқобил ҳал қилиш Альтернативное разрешение споров Мақолалар тўплами. – Т.: 2022. – 338 б. 4-бет
5. Ibratova F. B. Legal consequences of the introduction of a bankruptcy procedure for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur. – 2022.
6. Е. В. Силина Перспективы развития альтернативных форм разрешения споров УДК 347.9
7. Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team,(2021). – 2021. – Т. 45.
8. Севастьянов Г. В. Правовая природа третейского разбирательства как института альтернативного разрешения споров (частного процессуального права). – АНО «Редакция журнала «Третейский суд», 2015.
9. Ibratova F. Bankrotlik to'g'risidagi ishlarda prokuror ishtiroki.
10. Ефремова, О. В. Правовые технологии посредничества (медиатсии) в образовательных организациях города Москвы: сборник нормативно-правовых актов и методических материалов / О. В. Ефремова, Е. В. Питко. — Москва, 2016.

11. Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

12. Сулакшин С. С. и др. Альтернативные способы разрешения споров между субъектами предпринимательской деятельности //М.: Научный эксперт. – 2013.

13. Ibratova F. B., Erezhevov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – Т. 1. – С. 13-19.

14. Ibratova F. Мировое соглашение в гражданском судопроизводстве: теоретические проблемы и практика //О 'zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2018. – №. 4. – С. 35-39.

15. Еиседа, А. Трудовой спор по правилам и без / г. Киселев // - Юрист. — 2011. — № 40. — С. 4

16. Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.

17. Ibratova F. B. The Concept and Characteristics of Bankruptcy Procedures for Business Entities With the Status of a Legal Entity //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – Т. 20. – С. 143-147.

18. <https://drive.google.com/file/d/1q2dqHRmZAKmNYLy5Sc-GUBJU-2JFpjtI/view?usp=drivesdk>

19. <https://uza.uz/uz/posts/i-tisodiy-nizolarni-al-etishda-milliy-va-khorizhiy-tazhiba-23-05-2016>

20. Ibratova F. Legal Problems of the Concepts Legality, Justification and Justice by Judicial Acts //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 16.

21. Арпентьева М. Р. Медиация в контексте проблем альтернативного разрешения споров //Вестник Федерального института медиации. – 2017. – №. 2. – С. 48-64.

22. Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 57-62.

23. Ibratova F. BANKRUPTCY OF A LIQUIDATED BUSINESS ENTITY: PROBLEMS AND SOLUTIONS //Norwegian Journal of development of the International Science. – 2021. – Т. 2021. – С. 45.

24. Ibratova F. Problems of a settlement in bankruptcy cases in economic courts //Norwegian Journal of Development of the International Science. – 2019. – №. 28-3. – С. 23-25.

25. Воронцова Е. В. Альтернативные формы разрешения споров //Принципы гражданского, арбитражного и административного судопроизводства: проблемы теории и практики. – 2021. – С. 366-369.

26. Ibratova F. Problems of a settlement in bankruptcy cases in economic courts //Norwegian Journal of Development of the International Science. – 2019. – №. 28-3. – С. 23-25.

27. Романенко М. А. Альтернативные формы разрешения правовых конфликтов: выбор оптимальной модели //Вестник Астраханского государственного технического университета. – 2005. – №. 5. – С. 244-251.